

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>T.S.Axmedova</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati .....	214
<b>Z.O.Qosimoy</b>	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
<b>M.A.Usmanov</b>	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
<b>A.A.Minavarov</b>	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
<b>G.K.Usmanova</b>	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati .....	231
<b>X.A.Madaminov</b>	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
<b>C.Y.Анварбекова</b>	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике .....	238
<b>Д.М.Азимова</b>	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии .....	242
<b>Д.Ф.Керимов</b>	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse .....	247
<b>S.A.Mirzaqobilova</b>	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	255
<b>J.Q.Mirzajonov</b>	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati .....	260
<b>F.O'.Toshboltaev</b>	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni .....	264
<b>R.D.Mustayev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi .....	267
<b>S.A.Xayrullayev</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi .....	271
<b>N.M.Aliyev</b>	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
<b>G.I.Otaboyeva</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
<b>N.T.Abdullajonova</b>	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati .....	282
<b>Y.H.Teshayeva</b>	
Ilimga yo'g'rilgan umr .....	286
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
<b>M.F.O'rmonova</b>	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida) .....	295
<b>S.A.Rahmonberdiyeva</b>	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari .....	298
<b>Sh.G'.Xasanov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash .....	303



УО'К: 37.015.31.37.0+98.25.17

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA  
PEDAGOGIK INTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI QO'LLASH**

**ВЛИЯНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАМЕРЕНИЙ НА ОСНОВЕ  
СОВМЕСТНОГО ПОДХОДА НА ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАМЕРЕНИЯ**

**APPLYING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PEDAGOGICAL INTENTIONS OF  
FUTURE TEACHERS BASED ON A COLLABORATIVE APPROACH**

Xasanov Shoxaxon G'olibjon o'g'li   
Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

Ushbu maqolada kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarini o'quv jarayonida kollaborativ yondashuv asosidagi metodikalarning pedagogik intensiyalarini rivojlanirish metodikasi xususida ma'lumot berilgan. Oliy ta'lif muassasasida bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashning mavjud mazmuni va usullarini yangi talablar asosida o'zgartirish, shuningdek, uning mohiyati o'qituvchi hamda talabaning kollaborativ yondashuv asosidagi metodikalarning o'quv jarayonini rivojlanirishga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, dars turlariga alohida e'tibor qaratilgan va turli holatlari yoritib berilgan. Pedagogik intensiyalarning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun, o'quv jarayonidagi qo'llaniladigan metodikalar individual ko'rib chiqiladi. Mazkur ta'sir doirasi bo'lg'usi o'qituvchilarga fanlarni o'qitish jarayonini kollaborativ yondashuv usullari asosida tashkil qilishda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, qiziqishlarini inobatga olish hamda ta'lif tamoyillariga asoslanish ko'nikmalarini shakllantirish o'ta muhimligi haqida so'z boradi.

*Аннотация*

В данной статье представлена информация о влиянии методов, основанных на кооперативном подходе, на педагогические намерения в процессе подготовки будущих учителей, основанных на кооперативном подходе. Обсуждаются изменение существующего содержания и методов подготовки будущих преподавателей в высшем учебном заведении с учетом новых требований, а также подходы, направленные на разработку методов образовательного процесса, основанных на совместном подходе преподавателя и студента. В исследовании также уделено особое внимание типам уроков и выделены их различные ситуации. Для более глубокого понимания сущности педагогических намерений методы, используемые в образовательном процессе, рассматриваются индивидуально. Спросите у будущих учителей о важности учета познавательных способностей и интересов учащихся, формирования навыков, основанных на образовательных принципах, при организации процесса преподавания предметов на основе методов сотрудничества.

*Abstract*

This article provides information on the methodology of developing pedagogical intentions of the methods based on the collaborative approach in the training process of future teachers. Changing the existing content and methods of training future teachers in a higher educational institution based on new requirements, as well as approaches aimed at developing the educational process of methods based on the collaborative approach of the teacher and the student, are discussed. The study also paid special attention to the types of lessons and highlighted their various situations. For a deeper understanding of the essence of pedagogical intentions, the methods used in the educational process are considered individually. Ask future teachers about the importance of taking into account students' cognitive abilities, interests, and building skills based on educational principles when organizing the process of teaching subjects based on the methods of a collaborative approach goes


**Kalit so'zlar:** o'quv jarayoni, kollaboratsiya, pedagogik intensiya, ta'lif samaradorligi, ijodiy fikrlash, ko'nikmalarini o'zlashtirish, shaxsnинг shakllanishi.

**Ключевые слова:** учебный процесс, сотрудничество, педагогическое намерение, эффективность обучения, творческое мышление, овладение умениями, формирование личности.

**Key words:** educational process, collaboration, pedagogical intention, educational efficiency, creative thinking, mastering skills, personality formation.

## KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikamizning tarkibiy tuzilmasi va o'quv jarayoniga singdirilganligi uning mavjud metodikalardan farqini ko'stadi. Kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli asosida metodika ishlab chiqish shu jarayonni aniq anglagan holda tashkil qilishni, ishlarni aniq maqsad asosida amalga oshirilishini talab etadi va uni umumlashtirilgan holda quyidagi sxema tarzida tasvirlash mumkin



Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish maqsadida tadqiqot ishi doirasida adabiyotlar tahlili va ularni umumlashtirgan holda bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida o'qitishning interfaol metodlarini jamlab, bu metodik majmuani o'quv faoliyatiga singdirish maqsad qilib olingen. Tadqiqot doirasidagi metodik majmuani mamlakatimiz oliy ta'lif muassalarining bo'lajak pedagoglarni o'quv faoliyatini tashkillashda ularning fundamental pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi "Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi" va "Hamkorlik pedagogikasi" fanlariga integratsiya qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikamizni asosiy vazifasidir. Bunga sabab mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha yuqorida keltirilgan fanlar bo'lajak pedagoglarning intellektual salohiyati va metodik imkoniyatlarini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihat tadqiqotimizda o'rganilayotgan muammoning keng ko'lamda bartaraf etish imkoniyatini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasi tadqiqot doirasida qo'llaniladigan metodikalarning birlashuvi hamda bu metodik taviyalarning kollaborativ yondashuv asosida o'qitilishi, boshqacha qilib aytganda metodikalarning kollaborativ yondashuvga nisbatan integratsiyasi biz maqsad qilgan pedagogik intensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks ta'sirni namoyon qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Kollaborativ yondashuv asosida o'qitish yuzasidan Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, Y.N.Ilin kabi novator-pedagoglar pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'tasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlarini tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodgers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan. Bu yo'nalish vakillari ta'lif tarbiyaga turlicha qarashda bo'lsalarda ularning asosiy maqsadlari ta'lif tizimini "gumanizatsiyalash (insonparvarlashtirish) dan" iborat edi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

"Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi" va "Hamkorlik pedagogikasi" fanini oldingi tadqiqotimizda tavsiya etilgan metodik majmua tarkibidagi metodikalarni fan dasturi doirasidagi mavzularga nisbatan ularning xususiyati va ta'sir doirasiga ko'ra integratsiyasi navbatma-navbat mavzulashtirilgan. "Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi" va "Hamkorlik pedagogikasi" fanlarining mavzulari mazmuni, mohiyati, tarihi, huquqiy asoslari, vazifalari, shakllari, vositalari va pedagogik psixologik shart-sharoitlarini kollaborativ o'qitish asosida mavzulashtirilgan metodikalarni pedagogik intensiyalarini rivojlantiruvchi jihatlarini inobatga olgan tavsiya etiladigan kollaborativ yondashuv asosidagi metodik tavsiyalarimiz, metodik va pedagogik jihatdan fan doirasiga tadqiqotning yondashuv uslubi va fanning xususiyati bir biriga nisbatan mutonasiblik kasb etadi. Bu esa o'z navbatida metodikamizning samaradorliligini oshirishga yordam beradi

## ILMIY AXBOROT

<b>Metodika Fanlar</b>	<b>Axborot almashish</b>	<b>Qiziqarli rollar</b>	<b>Hamkorlikda muammolarni hal qilish</b>	<b>Hamkorlikda o'zaro o'rganish</b>	<b>Liderlik</b>	<b>Raqobat</b>	<b>Dual</b>
<b>Ijtimoiy pedagogika</b>	Xorijda va O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikani rivojlanish tarixi	Ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlar; Deviant xulq	O'zbek xalq pedagogikasi va islam ta'lomitida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar.	Ijtimoiy pedagogika tamoyillari; pedagogning kasbiy faoliyati	Fanning kategoriyalari va mexanizmlari Mahallalar – o'z-o'zini boshqarish organi	Ijtimoiy pedagogikaning tarixiy, ijtimoiy-huquqiy shart sharoitlari.	Ijtimoiylashuv omillari va vositalari; Bolaning sotsiumda rivojlanishi
<b>Oila pedagogikasi</b>	Chet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanishi tarixidan	Oila va uning vazifalari; Oilaning turlari;	O'zbekistonda oila pedagogikasi fanining rivojlanishi tarixi	Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari	Oila tarbiyasi mazmuni va mohiyati	Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari	Oila pedagogikasi - fan sifatida
<b>Hamkorlik pedagogikasi</b>	Xorijda hamkorlik pedagogikasi; hamkorlikda pedagogik intensiya	Pedagogik hamkorlik - talaba faoliyatini faollashtirish omili	Hamkorlik pedagogikasi o'quv faoliyatidagi metodik asoslari	Hamkorlik pedagogikasi tamoyillari va pedagogik qonuniyatlari	Hamkorlikdagi pedagogik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va samarali hamkorlik texnikasi	Hamkorlik pedagogikasi asosida o'quv faoliyatini loyihalash texnologiyasi	Fanga kirish, uning maqsadi, vazifalari va pedagogik asoslari.
<b>Rivojlanuvchi intensiylar</b>	<b>Ta'limi , Innovatsion, Diagnostik</b>	<b>Motivatsion, Innovatsion, Ijodiy</b>	<b>Tarbiyaviy, Muloqot, Diagnostik</b>	<b>Ta'limi , Tarbiyaviy, Muloqot, Ijodiy</b>	<b>Motivatsion, Diagnostik, Innovatsion</b>	<b>Ta'limi , Diagnostik, Ijodiy</b>	<b>Ta'limi , Tarbiyaviy, Muloqot,</b>

**2.4-rasm. Pedagogik intensiyalarning yuqori rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi fanlar qo'llanishi**

**Metodiklarni qo'llashning izohlanishi.** Metodikalarni joriy etish dastavval uning maqsadi va shu maqsadga bo'lgan pedagogik yondashuvni aniqlab olishdan boshlanadi. Biz taklif etgan metodikalarni amaliyatda qo'llashdan asosiy maqsad tadqiqotimizni amalga oshirishga undagan bo'lajak o'qituvchilarni koollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirishdir.

1-qadam. Ko'zlangan maqsadga muvofiq tadqiqot ishining avvalgi boblarida adabiyotlar tahlili hamda umumlashtirish orqali pedagogik intensiyalar aniqlab olingan va tavsifi keltirilgan. Pedagogik intensiyalarini rivojlantiriluvchi obyekt sifatida belgilanadi.

### 2.5-jadval.

<b>Maqsad:</b>	→→→→→→→→→→	<b>Pedagogik intensiyalarini rivojlantirish</b>
----------------	------------	---

Ko'zlangan maqsadga erishishda biz tadqiqot ishidagi kollaborativ yondashuv asosidagi o'qitish metodikalari aniqланади.

### 2.6-jadval.

<b>Yondashuv:</b>	→→→→→→→→→→	<b>Kollaborativ o'qitish</b>
-------------------	------------	------------------------------

Ushbu metodikalarni misol tariqasida tanlab olingan "Oila pedagogikasi" "Ijtimoiy pedagogika" va "Hamkorlik pedagogikasi" fani mavzularining xususiyatlariga va rivojlantirish maqsad qilib olingan pedagogik intensiyalarning turiga qarab tadqiqot ishida ko'rsatib o'tilgan tavsiya qilinuvchi metodikalarning pedagogik intensiyalarga ta'sir ko'rsatish darajasiga muvofiq qo'llash, metodikamizning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida tavsiya etilgan metodik majmuani amaliyatda qo'llash bo'lajak o'qituvchilarga kompleks ta'sir ko'rsatgan holda, peagogik intensiyalarini rivojlantirishni namoyon qiladi. Bu esa o'z navbatida maqsad qilib olingan bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirilishiga olib keladi. Quyida tavsiya etilgan metodikalarni xar bir fan doirasidagi mavzulardan namuna siftida keltirib o'tamiz.

1. "Ijtimoiy pedagogika" fanining "O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'lilotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar" mavzusini "Hamkorlikda o'zaro o'rganish" metodikasi asosida keltiriladi. "Hamkorlikda o'zaro o'rganish" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat.

1-qadam: Faoliyat yo'naliishi aniqланади, mavzu bo'yicha vazifalar belgilanadi, guruh kichik guruhlarga bo'linadi (3-5 kishidan iborat guruh), o'qituvchi vazifalarni bajarish uchun aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltiriladi.

Misol. Faoliyat turi – amaliy mashg'ulot, Mavzu- O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'lilotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar. Yondashuv – kollaborativ. Vazifalar – guruhli faoliyat yuzasidan muammoli vaziyatga yechim topish.

2-qadam: Guruhlarga mavzu doirasidagi ma'ruza mashg'ulotida o'rganilgan bilimlarni mustahkamlovchi guruhlar soniga teng bo'lgan muammoli vaziyatni bartaraf etish uchun materiallar tarqatiladi. Muammoli vaziyatni yechish uchun vaqt belgilanadi (15-20 daqiqa). Materiallar yuzasidan guruhli yondashuv asosida guruhlar, muammoli vaziyatni yechish jarayonida o'tilgan mavzuni individual tushunish darajalariga ko'ra bir birlariga o'rgatib mavzu yuzasidan o'rganilgan bilimlarini mustahkamlab borishadi.

Misol. 1-guruh uchun muammoli vaziyat – "Xorijdan kelgan mehmonlarga o'zbek xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakterini yoritib bering". 2 – guruh uchun muammoli vaziyat – "Xorijdan kelgan mehmonlarga o'zbek etnografiyasida mukammal inson modeli qanday ekanligini tushuntirib bering". 3 – guruh uchun muammoli vaziyat – "Xorijdan kelgan mehmonlarga Islom - monoteistik din ekanligi haqida ma'lumot bering". 4 – guruh uchun muammoli vaziyat – "Xorijdan kelgan mehmonlarga hadislarda ijtimoiy pedagogik fikrlaming yoritilishi haqida ma'lumot bering".

3-qadam. Muammoli vaziyatni yechish uchun berilgan vaqt poyoniga yetgandan so'ng, guruh yetakchisi tomonidan vaziyat yechimini bayon qiladi.

Misol. 1-guruh uchun muammoli vaziyatga bo'lgan yechimi – O'zbek xalq pedagogikasida ta'lim-tarbiya masalasi o'ta muhim ahamiyatga ega va uning ijtimoiy xarakteri keng qamrovli tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bu borada quyidagi asosiy jihatlar ta'kidlab o'tilishi mumkin: An'anaviy qadriyatlar, O'zbek xalq pedagogikasida an'anaviy qadriyatlar, ya'ni oila, mahalla va

## ILMIY AXBOROT

jamoa muhim o'r'in tutadi. Oila va mahalla yosh avlodning tarbiyasida asosiy ijtimoiy institutlar sifatida ishtirok etadi. O'zbeklarda ta'lif va tarbiya jarayonida oilaning roli juda muhimdir. Bolalar odatda ota-onalari va katta yoshli a'zolaridan axloqiy, madaniy va ijtimoiy me'yorlarni o'rganadilar. Mahalla esa yoshlar tarbiyasida hamkorlikda ishlaydi, ya'ni qo'shnilarining o'zaro yordam va mas'uliyati orqali farzandlar tarbiyasi mustahkamlanadi. Ustoz-shogird an'analarini o'zbek xalq pedagogikasida muhim ahamiyatga ega. Ustozlar o'z tajribalarini, bilimlarini va ko'nikmalarini shogirdlarga o'rgatishadi. Bu an'analar orqali nafaqat fan va hunarmandchilik, balki ijtimoiy munosabatlardan ham shakllanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, jumladan, ertaklar, maqollar, matallar va dostonlar ta'lif-tarbiya vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Bu badiiy asarlar orqali bolalar milliy qadriyatlar, vatandashlik, insoniylik va boshqa axloqiy meyorlarni o'rganadilar. O'zbek xalq pedagogikasidagi ijtimoiy xarakter zamonaviy ta'lif tizimida ham o'z aksini topadi. Maktablar, kollejlar va oliy ta'lif muassasalari ham xalq pedagogikasining tamoyillaridan foydalangan holda yosh avlodni tarbiyalaydi. Umuman olganda, o'zbek xalq pedagogikasida ta'lif-tarbiya masalasining ijtimoiy xarakteri jamiyatdag'i har bir individning barkamol inson bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

4-qadam. Vaziyat yechimi bayoni yuzasidan o'qituvchi va qolgan guruuhlar tomonidan individual tarzda 10 balli baholash mezonida baholanadi.

Misol. O'qituvchi tomonidan 10 ballik mezonida 8 ball. 2-guruuh tomonidan 10 ballik mezonida 7 ball. 3-guruuh tomonidan 10 ballik mezonida 8 ball. 4-guruuh tomonidan 10 ballik shkalada 7 ball.

5-qadam. Ballar umumlashtiriladi, g'oliblar aniqlanadi va guruuhlar baholanadi.

Misol. 1-guruuh natijasi 8, 7, 8 va 7 umumiyligi 30 ball. 2-guruuh natijasi 7, 6, 8 va 6 umumiyligi 27 ball. 3-guruuh natijasi bir hil 7 ballidan umumiyligi 28 ball. 4-guruuh natijasi 7, 6, 8 va 6 umumiyligi 27 ball. G'olib jamoa 1-guruuh, ularga "a'lo" baho qo'yiladi. 2-o'r'in 3-guruuh, ularga "yaxshi" baho qo'yiladi. 3-o'rinni esa 2- va 4-guruuh egalladi, ularga "qoniqarli" baho qo'yish maqsadga muvofiq.

6-qadam. Guruhlarning faoliyati yuzasidan taklif va mulohazalar bildirilib tahlil qilinadi.

Misol. Ikkinchisi va to'rtinchisi guruhlarning muammoli vaziyatga bo'lgan yechimlarida vaziyatni ochib berishga bo'lgan bilim va darsga bo'lgan tayyorgarliklari darajasi qolgan guruhlarnikidan past darajada bo'lganligi sababli ular bu amaliy mashg'ulotda quyidagi ko'rsatkishchni ko'rsatdilar. Kelgusi darslarga ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishlari tavsiya qilinadi.

Ushbu "Ijtimoiy pedagogika" fanining "O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'lifotida ijtimoiy-pedagogik g'oyalar" mavzusini "Hamkorlikda o'zaro o'rganish" metodikasi asosida tashkillash orqali, biz bo'lajak o'qituvchilarda, ta'lifiy, muloqot va diagnostik intensiyalariga yuqori darajada ta'sir ko'rsatib ularni rivotantirishimiz mumkin. Chunki "Hamkorlikda o'zaro o'rganish" metodikasida ta'lif oluvchilarda o'zganing fikrini hurmat qilish orqali muayyan axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiriladi, natijada ta'lifiy intensiyalar rivojlanib jamiyatda faol va mas'uliyatlari a'zo bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.

Metodikada samarali aloqa o'rnatish va ularning fikr-mulohazalarini eshitish asnosida o'quv jarayonida ikki tomonlama muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lif oluvchilarning fikr va mulohazalarini diqqat bilan tinglash va ularni tushunishga harakat qilish bilan ularda muloqot intensiyalarini rivojlanadi. Natijada ta'lif oluvchilarning fikr va mulohazalariga hurmat bilan yondashish ta'minlanadi, bu esa ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini oshiradi.

Mazkur metodikamiz talabalarning muammoli vaziyatga, ta'lif oluvchilar bilimini va ko'nikmalarini baholashga, ularning kamchiliklarni aniqlashga undashi ularda diagnostik intensiyalarini rivojlantiradi. Natijada ta'lif jarayonidagi samaradorlikni oshirish va individual yondashuvni ta'minlashga yordam beradi.

**2. "Oila pedagogikasi"** fanining "Oila va uning vazifalari" mavzusini "Qiziqarli rollar" metodikasi asosida keltiriladi. "Qiziqarli rollar" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat.

1-qadam: Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi, mavzu bo'yicha vazifalar belgilanadi, guruh kichik guruhlarga bo'linadi (3-5 kishidan iborat guruh), o'qituvchi vazifalarni bajarish uchun aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltiriladi.

Misol. Faoliyat turi – amaliy mashg'ulot, Mavzu – Oila va uning vazifalari. Yondashuv – kollaborativ. Vazifalar – qiziqarli rollar ijrosini ta'minlash vositasida mavzuning to'liq o'zlashtirilishini ta'minash.

2-qadam: Guruhlarga mavzu doirasidagi ma'ruza mashg'ulotida o'rganilgan bilimlarni mustahkamlovchi guruhlar soniga teng bo'lgan mavzuga mos qiziqarli rollar bo'lib beriladi va shu rolga nisbatan vazifalarni bajarish talab etiladi. Qiziqarli rollarga kirishish uchun vaqt belgilanadi (10-15 daqiqa). Qiziqarli rolning vazifasi yuzasidan guruhli yondashuv asosida guruhlar, qiziqarli rol ijrochisini va uning bu rolga nisbatan bajaradigan vazifasini guruhli hal qilish jarayonida o'tilgan mavzuni individual fikr berib mavzu yuzasidan o'rganilgan bilimlarini mustahkamlab borishadi.

Misol. 1-guruh uchun qiziqarli rol – "Siz Bobobekovlar oilasining eng yoshi ulug' a'zosi Anvar otasiz. Sizning oilangizda siz, turmush o'rtog'ingiz, o'g'lingiz, keliningiz, va 2 nafar nevarangiz bor. Oilaning boshi sifatida oila tushunchasiga izoh bering". 2-guruh uchun qiziqarli rol – "Siz Alimovlar oilasining bosh a'zosi Samandar Azimovichsiz. Sizning olangizda siz, turmush o'rtog'ingiz, 2 nafar o'g'lingiz va 2 nafar qizingiz bor. Oilaning boshi sifatida jamiyatga munosabati bo'yicha oilaning vazifalariga izoh bering". 3 – guruh uchun uchun qiziqarli rol – "Siz Akmalovlar oilasining a'zosi Gulsanam Shuxratovnasiz. Sizning olangizda siz, turmush o'rtog'ingiz, 1 nafar o'g'lingiz va 2 nafar qizingiz bor. Oilaning a'zosi sifatida odamlarga munosabati bo'yicha oilaning vazifalariga izoh bering".

3-qadam. Qiziqarli rollarga kirishish uchun berilgan vaqt poyoniga yetgandan so'ng, guruh yetakchisi tomonidan qiziqarli rollar ijrosini ta'minlash bilan savollarga javob bayon qilinadi.

Misol. 2-guruhnинг qiziqarli rol ijrochisi – Alimovlar oilasining bosh a'zosi Samandar Azimovich sifatida, oilaning jamiyatga nisbatan vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida oilaning asosiy vazifalari va jamiyat oldidagi majburiyatları haqida izoh beraman: Oilamizda turmush o'rtog'im, ikki o'g'lim va ikki qizim bilan birgalikda yashaymiz. Bizning asosiy vazifamiz farzandlarimizni ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan tarbiyalashdir. Ularga jamiyatda munosib o'rinni topishlari uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni berish muhimdir. Oila jamiyatning birlamchi ijtimoiy hujayrasi bo'lib, unda milliy qadriyatlar va an'analar avloddan-avlodga o'tkaziladi. Farzandlarimizga milliy va madaniy qadriyatlarini o'rgatish, ularga hurmat va muhabbat bilan qarashni o'rgatish bizning burchimizdir. Biz, kattalar, farzandlarimizga namuna bo'lib xizmat qilamiz. Ular bizning harakatlarimiz va munosabatlarimizdan o'rnak oladilar. Shuning uchun o'zimizni hamisha to'g'ri tutish, halollik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik va insoniylik kabi fazilatlarni namoyon etishimiz lozim. Oila jamiyatning ajralmas qismidir. Bizning mas'uliyatimiz jamiyatda ijobjiy o'zgarishlar qilish, mahalla va qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishdir. Yordamga muhtojlarga yordam berish, jamoat ishlarida faol ishtirot etish oila sifatida bizning jamiyat oldidagi vazifamizdir. Farzandlarimizning ta'limi va madaniyati uchun sharoit yaratish bizning vazifamizdir. Ularni məktab va o'quv muassasalarida o'qitish, badiiy, sport va boshqa madaniy tadbirdarda ishtirot etishga undash kerak. Bu orqali farzandlarimizni har tomonlama rivojlantirib, jamiyatda faol va foydali a'zolar bo'lib yetishishlariga yordam beramiz. Oilamizda sog'lom turmush tarzini saqlash va targ'ib qilishga e'tibor beramiz. Bu nafaqat o'zimiz uchun, balki jamiyat uchun ham muhimdir. Sog'lom oila sog'lom jamiyatning asosi hisoblanadi.

4-qadam. Qiziqarli rol ijrochisi savolga bayoni yuzasidan o'qituvchi va qolgan guruhlar tomonidan individual tarzda 10 balli baxolash mezonda baholanadi.

Misol. O'qituvchi tomonidan 10 ballik mezonda 9 ball. 2-guruh tomonidan 10 ballik mezonda 8 ball va 3-guruh tomonidan 10 ballik mezonda 8 ball.

5-qadam. Ballar umumlashtiriladi, g'oliblar aniqlanadi va guruhlar baholanadi.

Misol. 1-guruh natijasi 7, 7, va 8 umumiyligi 22 ball. 2-guruh natijasi 9, 8 va 8 umumiyligi 25 ball. 3-guruh natijasi bir hil 6, 8, va 7 balldan umumiyligi 21 ball. G'olib jamoa 2-guruh, ularga "a'lo" baho qo'yiladi. 2-o'rinni 1-guruh, ularga "yaxshi" baho qo'yiladi. 3-o'rinni esa 3-guruh egalladi, ularga "qoniqarli" baho qo'yish maqsadga muvofiq.

6-qadam. Guruhlarning faoliyati yuzasidan taklif va mulohazalar bildirilib tahlil qilinadi.

Misol. Uchinchi guruhnинг qiziqarli rollar ijrosini ta'minlash natijasida savollarga javob berishga ijodiy yondashuv va darsni yaxshi o'zlashtirmasliklari qolgan guruhlarnikidan past darajada bo'lganligi sababli ular bu amaliy mashg'ulotda quyi ko'rsatkishchni ko'rsatdilar. Kelgusi darslarga ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishlari tavsiya qilinadi.

## ILMIY AXBOROT

Ushbu “Oila pedagogikasi” fanining “Oila va uning vazifalari” mavzusini “Qiziqarli rollar” metodikasi asosida tashkillash orqali, biz bo’lajak o’qituvchilarda, motivatsion, innovatsion va ijodiy intensiyalariga yuqori darajada ta’sir ko’rsatib ularni rivotantirishimiz mumkin. Chunki, “Qiziqarli rollar” metodikasida ta’lim oluvchilarda ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirib, ularning faol ishtirotini ta’minalash va o’quv jarayonidan zavq olishini maqsad qiladi. Ta’lim oluvchilarda o’quv fanlariga bo’lgan qiziqishni uyg’otish, ularning o’quv materiallariga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va ta’lim oluvchilarni o’z maqsadlariga erishish yo’lida ilhomlantirish va ularda o’z qobiliyatlariga bo’lgan ishonchni oshiradi. Natijada motivatsion intensiyalar rivojlanib, ta’lim oluvchilarga qulay va qo’llab-quvvatlovchi o’quv muhitini yaratish, ularning fikr va g’oyalarini erkin bayon etish imkoniyatini ta’minalashga olib keladi.

Mazkur metod o’quv jarayonida yangi va samarali usullar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishga, o’quv jarayonida darslarni interaktiv va jonli qilish uchun turli xil o’yinlar, kvizlar, va simulyatsiyalarni qo’llashga, Ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlanirish uchun kreativ yondashuvlar va loyihalarni joriy etishga undaydi. Natijada innovatsion intensiyalar rivojlanib, ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli bo’lishini ta’minalaydi.

Shuningdek, ta’lim oluvchilarni ijodiy fikrlash va yaratuvchanlikni rivojlanirishga yo’naltirib, ularning yangi g’oyalarni yaratish va muammolarga innovatsion yondashuvlarni topish qobiliyatini oshirishga, ta’lim oluvchilarni standart fikrlash chegaralaridan chiqishga va yangi g’oyalarni ilgari surishga rag’batlantiradi. Natijada ijodiy intensiyalar rivojlanib, ularni muammolarga yangi va noan’anaviy yondashuvlar bilan qarashga o’rgatadi.

**3. “Hamkorlik pedagogikasi”** fanining “Xorijda hamkorlik pedagogikasi” mavzusini “Axborot almashish” metodikasi asosida keltiriladi. “Axborot almashish” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat.

1-qadam: Faoliyat yo’nalishi aniqlanadi, mavzu bo’yicha vazifalar belgilanadi, guruh kichik guruhlarga bo’linadi (3-5 kishidan iborat guruh), o’qituvchi vazifalarni bajarish uchun aniq ko’rsatmalar beriladi va yo’naltiriladi.

Misol. Faoliyat turi – amaliy mashg’ulot, Mavzu – Xorijda hamkorlik pedagogikasi. Yondashuv – kollaborativ. Vazifalar – Axborot almashish vositasida mavzuning to’liq o’zlashtirilishini ta’minash.

2-qadam: Guruhlarga mavzu doirasidagi ma’ruza mashg’ulotida o’rganilgan bilimlarni mustahkamlovchi guruhlar soniga teng bo’lgan mavzu yuzasidan savolnomaga tarqatiladi va shu savolga nisbatan ko’proq ma’lumot berish talab etiladi. Savolnomaga tayyorgarlik ko’rish uchun vaqt belgilanadi (15-20 daqiqa). Savolnomaga nisbatan ma’lumot yig’ish vazifasi yuzasidan guruhli yondashuv asosida jamoa a’zolari ko’proq ma’lumotni jamoaga berish orqali mavzu yuzasidan o’rganilgan bilimlarini mustahkamlab borishadi.

Misol. 1-guruh uchun savol – “Finlyandiya va Norvegiya davlatlarida hamkorlik pedagogikasi haqida ma’lumot bering”. 2-guruh uchun qiziqarli rol – “Daniya va Niderlandiya davlatlarida hamkorlik pedagogikasi haqida ma’lumot bering”. 3 – guruh uchun uchun qiziqarli rol – “Germaniya va Buyuk Britaniya davlatlarida hamkorlik pedagogikasi haqida ma’lumot bering”.

3-qadam. Savollarga javob topish uchun berilgan vaqt poyoniga yetgandan so’ng, guruh a’zolari tomonidan savollarga birma bir javob bayon qilinadi.

Misol. 3-guruh a’zolari – 1. Germaniya universitetlarida talabalar ko’plab jamoaviy loyihalarda ishtirok etadilar, bu ularni hamkorlikda ishlashga o’rgatadi; 2. Germaniyaning ba’zi universitetlari va maktablari muammoga asoslangan o’qitishni joriy qilgan, bu usul o’quvchilarni amaliy muammolarni birgalikda hal qilishga undaydi; 3. Germaniyada ko’plab maktab va universitetlarda integratsiyalangan o’quv dasturlari mavjud bo’lib, ularda fanlar o’rtasidagi hamkorlik va o’zarobog’liqlik ta’lim jarayonida ko’rsatiladi; 4. Maktab va universitetlarda diskussiya klublari mavjud bo’lib, ular o’quvchilarni fikr almashishga va jamoaviy muhokamalarda ishtirok etishga o’rgatadi; 5. Universitetlarda interdissiplinar kurslar keng tarqalgan bo’lib, talabalar turli fanlar bo’yicha guruhlarda ishlab, turli mavzularni birgalikda o’rganadilar; 6. Germaniyadagi ta’lim muassasalari onlayn hamkorlik platformalarini faol qo’llaniladi, bu o’quvchilarga masofadan turib hamkorlikda ishlash imkonini beradi; 7. Universitetlarda talabalar turli tadqiqot guruhlarida ishtirok etib, ilmiy ishlar va tadqiqotlarni birgalikda amalga oshiradilar; 8. Buyuk Britaniyada ko’plab universitetlar va maktablар PBL usulini qo’llaydi, bu talabalarni real hayot muammolarini birgalikda

hal qilishga undaydi. 9. Maktablar va universitetlarda loyihaviy ta'lif keng tarqalgan bo'lib, o'quvchilar guruhlarda loyihalarni birgalikda ishlab chiqadilar; 10. Buyuk Britaniya maktablari va universitetlarida debat klublari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarni jamoaviy muhokamalarda ishtirok etishga o'rnatadi; 11. Maktab va universitetlarda fasilitatsiyalangan guruhli ishlar o'tkaziladi, bu o'quvchilarni jamoaviy ishlashga va muammolarni birgalikda hal qilishga o'rnatadi; 12. Maktablarda tahlil va muhokamaga asoslangan o'qitish joriy qilingan bo'lib, o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar va turli mavzularni muhokama qiladilar. 13. Buyuk Britaniya maktablari va universitetlarida ijtimoiy loyihalar amalga oshiriladi, bu o'quvchilarni jamoaviy ishlashga va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga o'rnatadi; 14. Universitetlarda keys-metod usuli qo'llaniladi, bu talabalarni turli voqealar va muammolarni birgalikda tahlil qilishga va hal qilishga o'rnatadi.

4-qadam. Jamoalarga savolga nisbatan ma'lumotlarni soniga qarab ball beriladi ya'ni har bir ma'lumotga 1 balli baxolash mezonida baholanadi.

Misol. 1-guruh jami 9 ta ma'lumot taqdim etdi. 2-guruh 11 ta ma'lumot taqdim etdi, 3-guruh 14 ta ma'lumot taqdim etdi.

5-qadam. Ballar umumlashtiriladi, g'oliblar aniqlanadi va guruhrlar baholanadi.

Misol. 1-guruh natijasi umumiyligi 9 ball. 2-guruh natijasi umumiyligi 11 ball. 3-guruh natijasi umumiyligi 14 ball. G'olib jamoa 3-guruh, ularga "a'lo" baho qo'yiladi. 2-o'rinni 2-guruh, ularga "yaxshi" baho qo'yiladi. 3-o'rinni esa 1-guruh egalladi, ularga "qoniqarli" baho qo'yish maqsadga muvofiq.

6-qadam. Guruhlarning faoliyati yuzasidan taklif va mulohazalar bildirilib tahlil qilinadi.

Misol. Uchinchi guruhning savollarga javob berishda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanmaganligia va ma'lumotlarni yig'ishga kam vaqt sarflagani sababli ular bu amaliy mashg'ulotda quyidagi ko'rsatkishchini ko'rsatdilar. Kelgusi darslarga ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishlari tavsiya qilinadi.

Ushbu "Hamkorlik pedagogikasi" fanining "Xorijda hamkorlik pedagogikasi" mavzusini "Axborot almashish" metodikasi asosida tashkillash orqali, biz bo'lajak o'qituvchilarda, muloqot, innovatsion va ijodiy intensiyalariga yuqori darajada ta'sir ko'rsatib ularni rivolantirishimiz mumkin. Chunki, "Axborot almashish" metodikasida ta'lif oluvchilarga ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni o'rnatishga qaratilgan bo'lib: ta'lif oluvchilarning mavzuga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, ta'lif oluvchilarning amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlanishiga olib keladi. Natijada, ta'lifiy intensiyalarga yuqori darajada ta'sir ko'rsatilib uni rivojlantirish mumkin o'ladi bu esa o'z navbatida mavzu yuzasidan tushuncha va analiz qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Mazkur metod o'quv jarayonida yangi va samarali usullar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etish, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, interaktiv vositalarni, va onlayn platformalarni qo'llashga undaydi. Natijada, innovatsion intensiyalar rivojlanib, turli xil yangi usullar va texnologiyalar bilan tanishgan holatda, kelajakdagisi kasbiy va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi.

## XULOSA

Shuningdek, Diagnostik intensiyalar ta'lif oluvchilarning ta'lif tizimining yutuqlarini va muammolarini muntazam ravishda monitoring qilish va xulosa chiqarishga undaydi. Natijada diagnostik intensiyalar yuqori ta'sir ko'rsatiladi. Natijada kamchiliklarni bartaraf etish va o'quvchilarga yaxshiroq natijalarga erishishda yordam berish uchun individual maslahatlar berish xususiyatlari rivojlanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://kun.uz/news/2019/02/12/kunuzdan-innovatsion-lugat-trendsetterdan-startapgacha>.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. –B.
3. Bezrukova V.S. Osnovi duxovnoy kulturi (ensiklopedicheskiy slovar pedagoga). – Yekaterinburg. 2000. – S. 937.
4. Brentano F. Izbrannye raboti. M., 1996
5. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), –P. 4-14
6. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya:\\_Svobodnaya\\_ensiklopediya](https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya:_Svobodnaya_ensiklopediya)
7. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya:\\_Svobodnaya\\_ensiklopediya](https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya:_Svobodnaya_ensiklopediya)
8. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. (2016). Darslik. - T.: «Navro'z».

**ILMIY AXBOROT**

9. Pedagogika (pedagogika nazarasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lif sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Ulmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lif vazirligi. — Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat» nashriyoti, 2010. —B. 400.

10. May M.A., Doob L.W. Competition and Cooperation / M.A. May, L.W. Doob. — New York: Social Science Research Council, 1997.

11. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J. M. Spector, M. D. Merrill, J. van Merriënboer, & M. Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. — New York: Taylor & Francis, 2008. — P. 1017-1044.

12. DeVries, D., Edwards K. Learning games and student teams: Their effects on classroom process / D. DeVries, K. Edwards. — American Educational Research Journal. — 1993. — №10. — P. 307-318